

## AXBOROT URUHLARI SHAROITIDA OAV KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRISH MASALASI: IMRAD TADQIQOT TAHLILI

**Muallif: Shukurlayeva IlmiraTurdibek qizi**

*Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu tadqiqot axborot urushlari sharoitida ommaviy axborot vositalari (OAV) tomonidan kun tartibini (agenda) shakllantirishning mexanizmlarini IMRAD metodologiyasi asosida tahlil etadi. Tadqiqotda McCombs va Shaw tomonidan ishlab chiqilgan «Agenda-Setting» nazariyasining uch darajali modeli, G. Pocheptsov «sukut taktikasi» va «framing» (ramkalash) usullari nazariy asos sifatida qo'llanilgan. Tahlil ob'ekti sifatida O'zbekiston («Xalq so'zi», «Vatanparvar»), Rossiya («Krasnaya Zvezda») va xalqaro (CNN) nashrlari tanlangan bo'lib, uch xil tarixiy davr — 1941 (Ikkinchi Jahon urushi), 2000 (Sariosiyo voqealari) va 2022-yil (Rossiya-Ukraina to'qnashuvi) qoplanadigan materiallar qiyosiy tahlil usulida o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, barcha tadqiqot ob'ektlari kun tartibini strategik kommunikatsiya vositasi sifatida qo'llagan va jamiyatni yagona narrativ atrofida jipslashtirish uchun xizmat qilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot urushi, OAV, kun tartibi nazariyasi, agenda-setting, dezinformatsiya, framing, ramkalash, sukut taktikasi, strategik kommunikatsiya, media tahlil.*

### 1. KIRISH (INTRODUCTION)

Qurolli to'qnashuvlar va turli qarama-qarshiliklar, axborot orqali urushlar, manipulyatsiyalar urchigan bir vaqtda OAV shunchaki xabar tarqatuvchi tizim

vazifasidan chiqib, jamoatchilik fikrini boshqaruvchi asosiy manbaaga aylandi. Binobarin, axborot urushlarining shiddatli jarayonida «kun tartibini belgilash» qobiliyati jamiyatda kimning tom ma'noda «ustun» kelishini hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

«Kun tartibini belgilash» — ya'ni «agenda setting» g'oyasi mazmunini tushunishdan boshlash lozim. Bu tushunchani ilk bor Uolter Lippman ishlatgan. Olim OAV garchi auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmasa-da, individ ongida dunyo obrazini muayyan stereotip tasvir orqali yaratadi, degan. Ya'ni uning fikricha, qurolli nizo sharoitida insonlar urushda bevosita qatnasha olmagan uchun, jurnalist chizgan manzara ichida yashaydi. Jurnalist inson ongida voqeani «chizadi».

Loueri va Defler kabi tadqiqotchilar kun tartibidagi eng muhim besh jihatini alohida ta'kidlab o'tishadi: (1) kun tartibini shakllantirish xususiyatlari; (2) shaxsiy kun tartibini yaratishga hissa qo'shadigan ma'lumotlar manbalari; (3) kun tartibini belgilashning vaqt chizig'i; (4) shaxsiy xususiyatlarning kun tartibini tashkil etishga yordam berish darajasi; (5) kun tartibini shakllantirishda siyosiy mexanizmlarning roli.

McCombs va Shaw o'zlarining tadqiqotlarida «agenda-setting»ni uch turga ajratishadi. Birinchi darajali Agenda-setting — bu turda nima haqida o'ylashlari kerakligini belgilab olish: agar gazeta yoki TV biror voqeani kuniga o'n marta takrorlasa, odamlar o'z-o'zidan bu mavzuni mamlakatdagi eng birinchi darajali muammo deb hisoblama boshlaydi. Ikkinchi darajali Agenda-setting — qanday o'ylashni belgilash. Makkombs 1990-yillarda buni «Atributiv agenda-setting» deb atagan; bu bosqichda media auditoriyaga nafaqat voqeani ko'rsatadi, balki uni qanday rangda (ijobiy yoki salbiy) qabul qilishni ham belgilaydi. Uchinchi darajali Agenda-setting — 2012-yilda Makkombs va Ley Guo tomonidan taklif etilgan eng zamonaviy bosqich: media inson ongida bitta tushunchani ikkinchisi bilan uzviy bog'lab qo'yadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — axborot urushlari sharoitida OAV tomonidan kun tartibini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, manipulyatsiya va ramkalanishning ta'sir mexanizmlarini ochib berish hamda turli tarixiy davrlar va

geografik kontekstlar bo'yicha qiyosiy ilmiy xulosalar ishlab chiqishdir. **Tadqiqot gipotezasi:** qurolli to'qnashuvlar va axborot urushlari davrida barcha ko'rinishdagi OAV — milliy, davlatiy va xalqaro — kun tartibini strategik kommunikatsiya vositasi sifatida qo'llab, jamiyat ongini maqsadli boshqaradi.

## 2. METODLAR (METHODS)

---

### 2.1. Tadqiqot dizayni

Tadqiqotda sifatli tahlil usuli — aniqrog'i, kontent-tahlil (content analysis) va diskurs-tahlil (discourse analysis) — kombinatsiyasi qo'llanildi. Maqolalar sarlavhalari, narrativ yo'nalishlari, framing usullari va kognitiv ta'siri ko'rsatkichlariga ko'ra kodlandi. Tahlil McCombs va Shaw «Agenda-Setting» nazariyasining uch darajali modeli, Pocheptsov «sukut taktikasi» va Entman «framing» kontseptsiyalari asosida amalga oshirildi.

### 2.2. Tahlil ob'ektlari

Tadqiqot uch xil milliy kontekst va uch tarixiy davr qamrovida o'tkazildi. O'zbek nashrlari sifatida «Xalq so'zi» gazetasining 2000-yil 15-avgust (157-son) va 17-avgust (159-son) sonlari, shuningdek «Vatanparvar» gazetasining 2000-yil 10-avgust (96-son) va 15-avgust (98-son) sonlari tanlab olindi — bu davrlar Sariosiyo voqealari bilan to'g'ri keladi. Rossiya harbiy nashri sifatida «Krasnaya Zvezda» gazetasining 1941-yil 30-noyabr (282-son) va 20-dekabr (288-son) sonlari, hamda 2026-yil mart oyining 49-soni o'rganildi. Xalqaro nashr sifatida CNN.com portali Rossiyaning Ukrainaga to'liq bosqini boshlangan 2022-yil 24-fevral va urushning bir oyligiga to'g'ri kelgan 2022-yil 25-mart kunlari tahlil qilindi.

### 2.3. Tahlil mezonlari

Har bir nashr uchun quyidagi to'rtta mezon bo'yicha baholash amalga oshirildi: (1) Strategik yo'nalish — dominantlik kasb etgan narrativ; (2) Agenda-setting darajasi — birinchi, ikkinchi yoki uchinchi darajali mexanizm; (3) Framing usuli — ijobiy,

salbiy yoki neytral ramkalash; (4) Kognitiv ta'sir — auditoriyada kutilgan idrok natijasi. Tahlilning asosiy birligi — sarlavha va maqola boshlanmasi matnlari hisoblanadi, chunki aynan ular kun tartibini eng to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi.

### 3. NATIJALAR (RESULTS)

#### 3.1. «Xalq so'zi» va «Vatanparvar» nashrlari — Sariosiyo voqealari (2000)

«Xalq so'zi» gazetasining 157-sonida «Xalq qahramonlarini unutmaydi, xiyonatni kechirmaydi», «Terrorchilar talvasada», «Ming yigitni ishini qildi», «Alisher chinakam she'r edi», «Bolam yurtimiz koriga yaradi...», «Abdulla akaning o'g'li», «Istiqlol quyoshi mangudir» kabi maqolalar va «Besh qahramon» she'ri orqali Sariosiyo voqealari kun tartibiga chiqarilgan. 159-sonda esa «Vatan fidoylari», «Sadoqat ramzi», «Operatsiyaning harbiy bosqichi nihoyasiga yetmoqda», «Terrorchilarga jazo muqarrar», «Nobakoplar niyatiga yetolmaydi», «Tog'lardagi jasorat» kabi maqolalar joy olgan.

Uolter Lipmannning nazariyasiga tayanadigan bo'lsak, «Xalq so'zi» gazetasi bu maqolalari orqali aholiga haqiqiy muhitni his qilishiga emas, «chizilgan» manzarani his qilishiga zamin yaratadi. Gazetaning belgilagan bu kun tartibi orqali vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirishga, onalar va xalq tilidan olingan maqola-yu she'rlari orqali ham iftixor, ham ongli ravishda dushmanga nisbatan nafrat, o'tgan askarlar uchun motam tuyg'usini bevosita ulashdi. Makkoms va Show nazariyasidan kelib chiqib baholasak, nashr faqat voqea haqida xabar berish bilangina qolmay, balki o'sha voqeani baholashni xalqning o'ziga qo'yib bergan.

«Vatanparvar» gazetasining 96-sonida «Burchga sodiqlik sharafdir», «Terrorchilar niyatiga yetolmaydi», «O'g'lonlarning fidoiy», «Yetuk ofitser bo'lamiz», 98-sonida esa «A'lo xizmatimiz mustaqilligimizning 9-yilligiga», «Farxodlarning qalbi oyoqqa turdi», «Burchimiz gazandalapni yo'q qilish», «Qonxo'r to'da yakson qilinmoqda», «Sharaf erur yurt himoyasi», «Aytsammi, yo aytmassamm'...» sarlavhali maqolalar va «Besh qahramon» she'ri bilan kun tartibiga chiqarildi.

Har ikkala nashr — «Xalq so'zi» va «Vatanparvar» gazetolari — quruq hisobotlar yoki axborot bilan cheklanmasdan, balki unga «emotsional framing» ya'ni «hissiy ramkalash» san'ati orqali har sahifasida she'rlar bilan boyitib, uning ta'sirini o'n barobar oshirgan. Sababi, maqolalar kun tartibiga qo'yilgan maqsadni «to'ldira olmayotgan» bir vaqtda she'riyat va pafos orqali o'quvchining nafaqat ongiga, balki yuragigacha yetib borgan.

### 3.2. «Krasnaya Zvezda» gazetasi — Ikkinchi Jahon urushi (1941)

Gazetaning 282-sonida (30-noyabr 1941) «Наша победа на Юге» («Janubdagi g'alabamiz»), «Еще удар по войскам врага» («Dushman qo'shinlariga yana bir zarba»), «Как наши войска отбили у немцев Ростов-на-Дону» («Qo'shinlarimiz Rostov-Donni nemislardan qanday qaytarib oldi»), «Первые сведения о трофеях» («Qo'lga kiritilgan o'ljalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar»), «Забота о семьях фронтовиков» («Frontdagilar oilalari haqida g'amxo'rlik»), «Английское наступление в Ливии» («Angliyaning Liviyadagi hujumi») kabi maqolalar kun tartibini belgilagan.

288-sonda (20-dekabr 1941) esa «Войска генерала Голикова продолжают успешное преследование врага», «Немцы боятся ударов по флангам», «Гвардия наступает», «Назревание внутреннего кризиса в Германии» («Germaniyadagi ichki inqirozning kuchayishi»), «Зверское обращение немцев с советскими военнопленными», «Партизанская война в Сербии», «Японо-китайская война» kabi maqolalar o'rin egallagan.

1941-yilning eng og'ir pallalarida — dushman Moskva ostonasida turgan bir vaqtda — «Krasnaya Zvezda» gazetasining belgilagan «kun tartibi» axborot berish emas, balki butun boshli millatning ruhiy sinishiga yo'l qo'ymaslik uchun qurilgan strategik istehkom vazifasini o'tagan. Gazeta sarlavhalari orqali urush manzarasini shunday chizganki, unda Moskva uchun og'ir janglar ketsa-da, asosiy e'tibor qo'lga kiritilgan o'ljalari va oldingi saflarda topshirilayotgan ordenlarga qaratilgan. Bu

Makkoms nazariyasidagi «nima haqida o'ylash kerakligi» tamoyilining klassik ifodasidir.

Dekabrga kelib, gazeta kun tartibini dushmannning faqat tashqi emas, balki ichki zaifligiga ham qarata boshlagan. «Germaniyadagi ichki inqirozning kuchayishi» yoki «Nemislar qurshovdan qo'rqmoqda» kabi sarlavhalar orqali auditoriya ongida raqibning ruhiy mag'lubiyati tasvirlangan. G. Pocheptsov aytgan «sukut taktikasi» ham o'ziga xos tarzda ishlagan: frontdagi muvaffaqiyatsizliklar o'rnini dushmannning harbiy asirlar bilan vahshiyona munosabati haqidagi xabarlar egallashi jamiyatda raqibga nisbatan nafratni va murosasizhkn shakllantirgan.

### 3.3. «Krasnaya Zvezda» — Zamonaviy davr (2026-yil mart, 49-son)

Gazetaning 2026-yil mart oyining 49-soni tahlil qilingan natijalar quyidagi jadvalda ifodalangan:

Maqola sarlavhasi	Strategik yo'nalish	Kun tartibi usuli	Kognitiv ta'sir
«Противник теряет силы и территорию»; «Командный пункт ВСУ уничтожен»; «Преимущество в небе»	G'alaba va strategik ustunlik narrativi	First-level agenda-setting: diqqatni faqat muvaffaqiyatli harakatlarga yo'naltirish	«Vaziyat to'liq nazorat ostida» ishonchini yaratish va ichki vahimani so'ndirish
«Выполнять священный долг»	Ma'naviy-axloqiy safarbarlik	Positive Framing: urushning og'ir	Harbiy xizmatni romantizatsiya

<p>– великая честь»; «Особенности службы на передовой»; «Под аккомпанемент орудий»</p>		<p>jarayonlarini «sharaf» va «jasorat» tushunchalari bilan o'rash</p>	<p>qilish va vatanparvarlik stereotiplarini mustahkamlash</p>
<p>«Российский ОПК надёжный и эффективный»; «Окружая заботой каждого бойца»; «С вниманием и душой»</p>	<p>Institutsional ishonch va ijtimoiy g'amxo'rlik</p>	<p>Priming: davlatning qudrati va askarlarga g'amxo'rligi haqidagi baholash mezonlarini yaratish</p>	<p>«Orqa front» mustahkamligi haqidagi tasavvur uyg'otish</p>
<p>«Ил-2: как создавался «летающий танк»»; «Тревожные будни разведбата 201- й РВБ»</p>	<p>Tarixiy davomiylilik va geosiyosiy qudrat</p>	<p>Network Agenda- setting: bugungi harakatlarni o'tmishdagi buyuk g'alabalar bilan bog'lash</p>	<p>Milliy g'urur hissini uyg'otish va «armiya har doim eng kuchli bo'lgan» ishonchini shakllantirish</p>

## 3.4. CNN — Rossiya-Ukraina urushi (2022)

2022-yil 24-fevraldagi CNN.com bosh sahifasida material boshlanmasidan oq «Putin launches full-scale invasion of Ukraine» ya'ni «Putin Ukrainaga to'liq miqyosdagi bosqinni boshladi» degan katta sarlavha bilan ochildi. Keyin esa maqolalar saf tortib, «These are the Ukrainian cities under attack» («Hujumga uchragan Ukraina shaharlari mana bular»), «NATO allies activate defense plans amid Russian attack», «Biden announces new sanctions targeting Russia's economy», «The world reacts to Russia's attack on Ukraine», «Zelensky calls on Ukrainians to fight: 'We will defend our country'», «Opinion: Putin has made a catastrophic miscalculation» kabi materiallar bilan portal urushni kun tartibiga chiqardi.

2022-yil 25-martdagi sahifalarda esa «Russia claims control of Mariupol - Ukraine says fighting continues», «US intelligence: Russia running low on precision-guided missiles», «Blinken: Russia committed war crimes in Ukraine», «How ordinary Ukrainians are turning the tide against Russia», «Russian forces deliberately targeting civilians, UN says», «Opinion: The war is going badly for Putin. What happens next?», «Refugees: More than 3.7 million Ukrainians have fled the country», «How the world is helping Ukraine» kabi maqolalar va videolahzalar o'rin egallagan.

Urushning dastlabki va bir oylik davrida CNN ning belgilagan «kun tartibi» oddiy axborot berish emas, balki xalqaro jamoatchilik fikrini ma'lum yo'nalishda shakllantirish uchun qurilgan strategik kommunikatsiya vositasi vazifasini o'tagan. Portal sarlavhalari orqali urush manzarasini shunday chizganki, unda jangovar harakatlar tasvirlangan bo'lsa-da, asosiy e'tibor Rossiyaning zaifligiga — raketalar kamayib bormoqda, fond bozorlar quladi, Putin «halokatli xato» qildi — va ukrainaliklarnig qahramonligiga qaratilgan.

G. Pocheptsov aytgan «sukut taktikasi» CNN da ham o'ziga xos tarzda ishlagan: Rossiyaning bosib olgan hududlaridagi harbiy yutuqlari o'rnini «urush jinoyatlari» va «tinch aholining o'ldirilishi» haqidagi xabarlar egallashi xalqaro jamoatchilikda raqibga nisbatan axloqiy nafrat va murosasizhknini shakllantirgan. CNN ning kun

tartibida «How the world is helping Ukraine» kabi materiallarning paydo bo'lishi tasodif emas — bu o'quvchida «Ukraina yakkalanib qolmadi, butun dunyo u bilan» degan ishonchni uyg'otish uchun xizmat qilgan.

## 4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

### 4.1. Umumiy qonuniyatlar

Tahlil qilingan har uchala davr — xoh u 1941-yilgi Moskva ostonasidagi og'ir janglar bo'lsin, xoh 2000-yildagi Sariosiyo voqealari yoki bugungi zamonaviy to'qnashuvlar — media doimo kun tartibini belgilab, asosiy muammoga e'tibor berish bilan jamiyatni vahimadan asrash va uni yagona narrativ atrofida jipslashtirish uchun eng samarali filtr vazifasini o'tagan. Bu holat tadqiqotning dastlabki gipotezasini to'liq tasdiqlaydi.

Barcha tadqiqot ob'ektlarida uchta umumiy qonuniyat kuzatildi. Birinchidan, tushkunlik mavzularini kun tartibidan chiqarish va g'alaba, jasorat, fidoyilik mavzularini markazga qo'yish. Ikkinchidan, dushmann obraz haqidagi ikkita parallel narrativni — tashqi harbiy zaiflik va ichki inqiroz — bir vaqtda ishlatish. Uchinchidan, auditoriyada «biz yakkalanib qolmadik» degan ishonchni mustahkamlash uchun ittifoqdoshlar va xalqaro hamjihatlik mavzusini kun tartibiga kiritish.

### 4.2. Milliy va xalqaro nashrlardagi farqlar

O'zbek nashrlari («Xalq so'zi», «Vatanparvar») emotsional framing vositasi sifatida she'riyat va adabiy janrlardan keng foydalangan. Bu O'zbek madaniy merosiga xos bo'lib, xalq ongida chuqurroq aksul-aks uyg'otishga xizmat qilgan. «Krasnaya Zvezda» esa tarixiy davomiylik (Il-2 «uchuvchi tank»ning tarixi kabi maqolalar) va institutsional ishonchni (ordenlar, g'amxo'rlik) bir vaqtda ishlatib, «doimo g'alaba qozongan armiya» obrazini yaratgan.

CNN xalqaro demokratik auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli, axloqiy argumentlarga — urush jinoyatlari, fuqarolar qurbonlari — alohida urg'u

bergan. Bu uning ikkinchi darajali agenda-settingning asosiy vositasi sifatida ishlagan; ya'ni voqea faqat yoritilmagan, balki ma'lum axloqiy ramkaga solingan.

### 4.3. «Sukut taktikasi»ning ko'rinishlari

G. Pocheptsov asarlarida ta'riflangan «sukut taktikasi» barcha tadqiqot ob'ektlarida kuzatildi. Sariosiyo voqealari davrida O'zbek nashrlari terhorchilar tomonidan erishilgan harbiy yutuqlarni yoritishdan bosh tortib, asosiy e'tiborni o'z kuchlarimizning jangcha faoliyatiga qaratdi. Ikkinchi Jahon urushi davrida «Krasnaya Zvezda» frontdagi chekinishlar o'rniga olg'a surish va mukofotlashni ko'rsatdi. CNN esa Rossiya bosib olgan hududlardagi strategik muvaffaqiyatlarini «urush jinoyatlari» haqidagi axloqiy framingga almashtirdi.

### 4.4. Zamonaviy raqamli muhitda agenda-setting

Zamonaviy axborot muhitida kun tartibini shakllantirish yangi o'lchovlar kasb etmoqda. CNN misoli shuni ko'rsatadiki, xalqaro media gigantlari endi nafaqat an'anaviy nashrlar orqali, balki real vaqt rejimida yangilanuvchi veb-portalar, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia formatlar orqali agenda-settingni amalga oshirmoqda. Bu Pariser tomonidan ta'riflangan «filter bubble» effektini yanada kuchaytiradi va auditoriyaning voqelikdan o'z «pufakchasi» doirasida axborot olishiga olib keladi.

## 5. XULOSA (CONCLUSION)

Ushbu tadqiqot axborot urushlari sharoitida OAV kun tartibini (agenda) shakllantirishning universal qonuniyatlarini ko'rsatdi. Tahlil natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. McCombs va Shaw «Agenda-Setting» nazariyasining uch darajali modeli qurolli to'qnashuvlar davridagi OAV faoliyatini tahlil qilishning eng samarali vositasi ekanligini tadqiqot ob'ektlari tasdiqladi.

2. Barcha tadqiqot ob'ektlari — milliy, davlatiy va xalqaro nashrlarga qaramasdan — bir xil strategik maqsadni ko'zlagan: jamiyatni ruhiy sinishdan asrash va uni yagona narrativ atrofida birlashtirish.
3. «Sukut taktikasi» (Pocheptsov), «framing» (Entman) va «priming» mexanizmlari bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilgan; bu holat ularning kun tartibini boshqarishdagi ahamiyatini yanada isbotlaydi.
4. Milliy kontekstga xos ramkalash usullari — O'zbekistonda she'riyat va emotsional pafos, Rossiyada tarixiy davomiylik, CNN da axloqiy argumentatsiya — agenda-settingning universal mexanizmi turli madaniy vositalar orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi.
5. Zamonaviy raqamli muhitda agenda-setting yangi ko'rinish kasb etmoqda: real vaqt yangilanishlari, multimedia formatlar va algoritmik boshqaruv an'anaviy kun tartibi mexanizmlarini yanada kuchaytirib, auditoriyaning voqelikni idrok etishini chuqurroq shakllantirmoqda.

Kelajak tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt algoritmlari tomonidan agenda-settingning amalga oshirilishi; media savodxonlikni rivojlantirishning jamiyat axborot immuniteti uchun ahamiyati; hamda O'zbekiston raqamli mediasi kontekstida zamonaviy axborot urushlariga qarshi tura olish mexanizmlarini ishlab chiqish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lippmann W. Public Opinion. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. — 427 p.
2. McCombs M., Shaw D. The Agenda-Setting Function of Mass Media // Public Opinion Quarterly. — 1972. — Vol. 36. — №2. — P. 176–187.
3. McCombs M. Setting the Agenda: The Mass Media and Public Opinion. — Cambridge: Polity Press, 2004. — 184 p.

4. McCombs M., Guo L. Agenda-setting influence of traditional and social media // The Oxford Handbook of Political Communication. — 2014. — P. 393–405.
5. Lowery S., DeFleur M. Milestones in Mass Communication Research. — New York: Longman, 1988. — 432 p.
6. Entman R. Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm // Journal of Communication. — 1993. — Vol. 43. — №4. — P. 51–58.
7. Pocheptsov G. Informatsionnye voyni. — Moskva: Refl-buk, 2000. — 576 s.
8. Pariser E. The Filter Bubble: How the New Personalized Web Is Changing What We Read and How We Think. — New York: Penguin Press, 2011. — 304 p.
9. Safarov A. Harbiy jurnalistikada yangiliklar va reportyorlik mahorati. — Toshkent, 2018.
10. «Xalq so'zi» gazetasi. — 2000-yil 15-avgust. — 157-son; 2000-yil 17-avgust. — 159-son.
11. «Vatanparvar» gazetasi. — 2000-yil 10-avgust. — 96-son; 2000-yil 15-avgust. — 98-son.
12. «Krasnaya Zvezda» gazetasi. — 1941-yil 30-noyabr. — 282-son; 1941-yil 20-dekabr. — 288-son.
13. «Krasnaya Zvezda» gazetasi. — 2026-yil mart. — 49-son.
14. CNN.com. — 2022-yil 24-fevral va 25-mart kunlari bosh sahifasi materiallari.
15. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuni (2007, 2019-yil tahriri).